

Uzbekistan Airways: homiladorlik davrida sayohat qilish

2023 6 Aprel

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi doimo o'z yo'lovchilari haqida qayg'uradi va albatta ularning bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga xavfsiz tashishini ta'minlaydi. Shu jumladan, homilador ayollarning parvozi uchun qat'iy rioya qilinishi kerak bo'lgan bir qator qoidalar mavjud.

Homilador ayollar tashish uchun quyidagi hollarda qabul qilinadi:

- agar homiladorlik muddati 35 haftadan oshmagan bo'lsa, shifokor tomonidan tashuv sanasidan ko'pi bilan 7 kun oldin imzolangan tibbiy sertifikat mavjud bo'lganda;
- agar egizaklar tug'ilishi mo'ljal qilinayotgan bo'lsa, tashuv sanasida homiladorlik muddati 32 haftadan oshmasligi kerak;
- agar homiladorlik muddati 35 haftadan oshsa, faqatgina aviakompaniya tibbiy xizmati roziligi bilan va shifokor yoki tibbiyot xodimi kuzatuvi ostida tashuvga ruxsat etiladi.

Uzbekistan Airways homilador ayollardan havo transportida parvozlarni rejalashtirishdan oldin shifokor bilan maslahatlashib, tavsiyalar va parvozga ruxsat olishlarini so'raydi.

O'zingiz va tug'ilajak farzandingizni ehtiyot qiling.